

AHOLI FAROVONLIGI VA IJTIMOIIY SOHA RIVOJIDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING O'RNI

Ahmadova Zebiniso Shavkatovna

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Buxoro innovatsiyalar universiteti dotsenti

Annotatsiya. Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTL) aholi farovonligini ta'minlash va ijtimoiy sohani rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ular davlat va jamiyat o'rtasida mustahkam ko'priq bo'lib, aholining turli qatlamlariga manzilli yordam, ijtimoiy xizmatlar va innovatsion tashabbuslarni yetkazib berish orqali barqaror taraqqiyotga hissa qo'shadi. NNTLlarning asosiy maqsadi – ijtimoiy adolat, tenglik hamda fuqarolarning faolligini oshirishga ko'maklashishdir. Bunda nodavlat sektori aholining ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy ehtiyojlarini chuqur o'rganib, aniq dasturlar va loyihalar orqali real natijalarga erishadi. Turli grantlar, xususiy sektor bilan hamkorlik va xalqaro tashkilotlarning qo'llab-quvvatlashi NNTLlarga o'z faoliyatini kengaytirish, turli innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Shuningdek, davlat idoralari bilan hamkorlik ijtimoiy himoya va xizmatlar samaradorligini oshirish, aholining farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Aholi farovonligi, Ijtimoiy soha rivoji, Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTL), Ijtimoiy hamkorlik, Barqaror rivojlanish, Innovatsion loyihalar, Jamiyat faolligi.

Prezident Sh. Mirziyoyevning 2020 - yil 24- yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” degan g'oyaning ilgari surilishi natijasida hukumat islohotlarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarini ittifoqchi sifatida ko'ra boshladi. Bu esa, mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlarning erkin faoliyat yuritishi uchun yanada ko'proq imkoniyatlarni yaratishda, qonunchilikdagi o'zgartirishlar va tashabbuslarda namoyon bo'ldi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 9 200 dan ortiq NNT faoliyat yuritmoqda. Xususan, yaratilgan huquqiy asoslar natijasida, mamlakatda NNTlarning erkin va barqaror rivojlanishi yanada jadallashdi. Xususan, 1991 - yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, respublikada 95 ta

NNT faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2000 - yilning 1- yanvariga kelib, ularning soni 2585 taga, 2016 - yilda 8417 taga, hozirga kunda esa 9200 ga yaqinni tashkil etmoqda. Nodavlat tashkilotlarning o'sish tendensiyasiga ularning ish samaradorligini oshirishga qaratilgan qator chora-tadbirlarning ijrosi bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, shu

sohada 200 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilingan bo'lib (shundan 20 ga yaqini so'nggi besh yilda qabul qilingan), NNTlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun zarur institusional baza yaratilgan. Bu esa mamlakatda NNTlar faoliyatining kengayishiga oid barcha tashkiliy-huquqiy mexanizmlar shakllantirilgani va bu jarayon mustahkamlab borilayotgani bilan xarakterlidir. Buni O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'sish dinamikasi yildan-yilga progressiv davom etayotganida ham ko'rish mumkin.

Shu bilan birga, sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida, nodavlat notijorat tashkilotlar manfaatlarini ifoda etishga, davlat bilan ular o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajarishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi tashkil qilindi. Shuningdek, aholi bilan ochiq muloqot olib borishning yangi samarali vositalarini joriy etish maqsadida davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Natijada, NNTlar jamiyatda ochiqlik va oshkoralikni ta'minlashda davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini shakllantirishda tashabbuskorlikni qo'lga olmoqda.

E'tiborli jihati, Davlat boshqaruvini takomillashtirish borasida olib borilgan ishlar uzviy davom ettirilib, 2021-yil – "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" Davlat dasturida ham ushbu yo'nalishga qaratilgan bir qator ustuvor vazifalar belgilab berildi. Jumladan, 2021- yilning birinchi yarim yilligida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan:

- qonun ijodkorligi faoliyati va qonunlar ijrosini ta'minlash sohasida Oliy Majlis palatalari hamda davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish;
- Buxoro shahrida "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo global hamkorlik" mavzusida xalqaro forum o'tkazish;
- davlat boshqaruvi organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish;
- o'rta va quyi bo'g'in boshqaruv idoralarining faoliyatini tubdan takomillashtirish;
- mahalliy ijro va vakillik organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish;
- davlat fuqarolik xizmatiga kadrlarni tanlash, ularning malakasini oshirish va faoliyatini baholash bo'yicha samarali va ochiq tizimni joriy etish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari ijrosini nazorat qilishning yangi tizimini yo'lga qo'yish;
- xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi mavqeini yanada oshirishga qaratilgan yaxlit tizimni yaratish;
- aholi va tadbirkorlik sub'yektlarining davlat organlari bilan munosabatga kirishishida byurokratik to'siqlarni tubdan qisqartirish;

- 2030- yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tengligiga erishish strategiyasini ishlab chiqish kabi bir qator vazifalar belgilab berilgan.

Xususan, Davlat dasturining 4-bandida davlat boshqaruvi organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish maqsadida boshqaruvda bir-birini takrorlaydigan idoralar, funksiyalar va byurokratik to'siqlarni va majlisbozlikni qisqartirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisobidan ish jarayonlarini optimallashtirish, davlat boshqaruvi xodimlari sonini mehnat qonunchiligiga qat'iy rioya etgan holda o'rtacha 15% gacha optimallashtirish hamda vazirliklarda faoliyatni tuman, shahar, qishloq va mahalla kesimida rejalashtirish tizimini joriy etishni nazarda tutuvchi bir qator vazifalar belgilab olingan edi.

Ushbu vazifalar ijrosi doirasida 2021- yil 3- aprel kuni "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tuzilmasini maqbullashtirish va shtat birliklari sonini qisqartirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori qabul qilindi.

Qaror bilan 2021- yil 1- mayga qadar, 52 ta davlat hokimiyati va boshqaruvi organi hamda ularning idoraviy va hududiy bo'linmalari boshqaruv xodimlarining sonini 15% gacha maqbullashtirish, 26 ta vazirlik va idoraning mavjud 106 ta rahbar o'rinbosari lavozimini 40 taga qisqartirish hamda ustav fondi (kapitali)da davlat ulushi 50% va undan ortiq miqdorda bo'lgan xo'jalik jamiyatlari aksiyadorlar umumiy yig'ilishida, shuningdek, davlat korxonalari boshqaruv organlarida kamida bir nafardan o'rinbosari lavozimlarini qisqartirish, shuningdek, boshqaruv xodimlari sonini 10% miqdorida maqbullashtirish belgilandi.

Shuningdek, o'z vaqtida amalga oshirilgan islohotlar natijasida davlat boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan Davlat dasturining birinchi yarim yillikda ijro etilishi belgilangan yana bir qator bndlari hayotga tadbiiq etildi. Xususan, 2021- yilning 23-mart kuni "Aholi va tadbirkorlik sub'yektlariga davlat xizmatlaridan foydalanishda yanada qulay sharoitlar yaratish, bu borada byurokratik to'siqlarni qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon bilan "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" Davlat dasturining 10-bandii ijrosi ta'minlanib, aholi va tadbirkorlik sub'yektlarining davlat organlari bilan munosabatga kirishishida byurokratik to'siqlarni tubdan qisqartirish bilan bog'liq vazifalar belgilandi.

2021- yilning 5- martidagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori bilan xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini ta'minlash borasidagi ishlar yangi bosqichga olib chiqildi.

Endilikda, Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etilib, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir

islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholi o'rtasida keng targ'ib qilish, xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish, hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish kengashning asosiy vazifalari etib belgilandi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Harakatlar strategiyasi doirasida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish yo'lidagi muhim islohotlarning katta qismi xalq hokimiyatchiligi mexanizmlarini kuchaytirish, davlat hokimiyati tarmoqlarining mustaqilligini ta'minlash, Parlamentning rolini yanada kuchaytirish, davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining ochiqqligini ta'minlash, nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyatini huquqiy ta'minlash va rag'batlantirishga qaratildi.

Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar xalqimizni rozi qilishga hamda Yangi O'zbekistonning xalqaro maydonda keng e'tirof etilishiga xizmat qilmoqda. Bu esa mamlakatda amalga oshirilayotgan yangi bosqichdagi islohotlar, olib borilayotgan pragmatik ichki va tashqi siyosatning qanchalik to'g'ri va samarali ekanidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni (14.04.1999 y., 763-I-son). Onlayn manba
2. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP). (2020). *Inson rivojlanishi hisoboti*. – Nyu-York: UNDP. Onlayn manba
3. Rustamova, Z. (2022). "Ijtimoiy sohani rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni". *O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali*, (2), 45-51.
4. Jahon Banki. (2021). *Aholi farovonligini oshirish bo'yicha tahliliy hisobot*. – Vashington: World Bank.